

ASQAD MUXTOR SHE'RIYATIDA ARABCHA LEKSEMALARNING FUNKSIONAL-
STILISTIK XUSUSIYATLARIFUNCTIONAL-STYLISTIC FEATURES OF ARABIC LEXEMES IN ASQAD
MUKHTOR'S POETRYФУНКЦИОНАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
АРАБСКИХ ЛЕКСЕМ В ПОЭЗИИ АСКАДА МУХТАРА

Mirzatillayeva Nargizaxon

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21126175>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Asqad Muxtor she'riyatida uchraydigan arabcha o'zlashma leksemalarning funksional-stilistik xususiyatlari lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida shoir she'rlarida qo'llangan ajab, jahl, hol, ahd, va'da, visol, alam, sir, abad, inson, iloh, muhabbat, umr, tasalli, falsafa, marhamat, his, muqaddas, nazar, ma'no, ehtimol kabi arabcha birliklarning semantik va uslubiy imkoniyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijasida mazkur leksemalar badiiy matnda nominativ vazifadan tashqari emotsional-ekspressiv, aksiologik, falsafiy-konseptual hamda poetik-estetik funksiyalarni bajarishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Asqad Muxtor, arabcha leksemalar, funksional stilistika, lingvopoetika, badiiy matn, semantika, ekspressivlik, konsept.

Annotation. The article examines the functional and stylistic features of Arabic loanwords used in the poetry of Asqad Mukhtor. The study analyzes the semantic and stylistic potential of Arabic lexical units employed in the poet's artistic discourse. The findings reveal that Arabic lexemes perform expressive, axiological, philosophical, conceptual and poetic-aesthetic functions alongside their nominative role.

Keywords: Asqad Mukhtor, Arabic loanwords, stylistics, linguopoetics, semantics, poetic language.

Аннотация. В статье исследуются функционально-стилистические особенности арабских заимствованных лексем в поэзии Аскада Мухтара. Определяются их семантические, эстетические и концептуальные функции в художественном тексте. Установлено, что арабские заимствования выполняют не только номинативную, но и экспрессивную, аксиологическую и философскую функции.

Ключевые слова: Аскад Мухтар, арабские заимствования, функциональная стилстика, поэтический текст.

Kirish

O'zbek adabiy tili lug'at tarkibining muhim qismini arab tilidan o'zlashgan leksemalar tashkil etadi. Mazkur qatlam asrlar davomida diniy, ilmiy, falsafiy va badiiy uslublarning shakllanishida faol ishtirok etib kelmoqda. Ayniqsa, badiiy matnda arabcha o'zlashmalar muallifning individual uslubini yaratish, poetik obrazlarni shakllantirish hamda falsafiy-estetik mazmunni ifodalashda muhim stilistik vosita hisoblanadi.

Asqad Muxtor XX asr o'zbek she'riyatida falsafiy tafakkur va poetik mushohadani o'ziga xos badiiy til orqali ifodalagan ijodkorlardan biridir. Uning she'rlarida qo'llangan arabcha leksemalar inson, muhabbat, umr, visol, ahd, jahl, marhamat kabi konseptlarning mazmuniy markazini tashkil etadi. Biroq shoir she'riyatidagi arabcha o'zlashmalarning funksional-stilistik imkoniyatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Asqad Muxtor she'riyatida uchraydigan arabcha leksemalarning semantik, funksional va stilistik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning badiiy matndagi poetik vazifalarini ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

O'zbek tilshunosligida arabcha o'zlashma leksemalarning etimologik, semantik, derivatsion va funksional xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlar arabcha qatlamning o'zbek tili leksik tizimidagi o'rni, taraqqiyot bosqichlari hamda badiiy matndagi uslubiy imkoniyatlarini yoritishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Arabcha o'zlashmalarni turkiy tillar qiyosida o'rganishga bag'ishlangan eng so'nggi tadqiqotlardan biri E. Orazbayevning *"Turkiy tillarda arabcha o'zlashmalarning funksional-semantik va lingvomadaniy tadqiqi (o'zbek, qoraqalpoq, turkman tillari misolida)"* mavzusidagi dissertatsiyasidir (2024). Muallif arabcha o'zlashmalarni qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan tahlil qilib, ularning semantik taraqqiyoti, funksional imkoniyatlari hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ochib bergan. Tadqiqotda arabcha leksemalarning turkiy tillardagi umumiy va milliy xususiyatlari aniqlanib, ularning zamonaviy til tizimidagi faol qo'llanishi asoslab berilgan. Mazkur ish Asqad Muxtor she'riyatidagi arabcha leksemalarni funksional-stilistik jihatdan baholashda muhim nazariy manba vazifasini bajaradi.

Arabcha o'zlashmalarning tarixiy poetik qatlamdagi qo'llanishi M.R.Tojiboyevaning *"Alisher Navoiyning "Ilk devon"idagi arabcha so'zlarning leksik-semantik talqini"* mavzusidagi dissertatsiyasida batafsil tadqiq etilgan. Tadqiqotda Navoiy she'riyatida qo'llangan arabcha birliklarning semantik guruhlari, uslubiy vazifalari hamda badiiy-estetik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muallif arabcha leksemalarning mumtoz poetik tafakkurni shakllantirishdagi o'rnini asoslab bergan. Ushbu yondashuv Asqad Muxtor she'riyatidagi arabcha birliklarning poetik funksiyalarini izohlashda metodologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Arabcha o'zlashmalarning o'zbek tili leksik tizimidagi o'rni D.O.Hasanovanning *"Arabcha lug'aviy o'zlashmalarning o'zbek tili nominativ va derivativ tizimidagi o'rni"* mavzusidagi dissertatsiyasida keng yoritilgan. Muallif arabcha o'zlashmalarning so'z yasalishi, nominatsiya jarayonlari hamda derivatsion imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qiladi. Dissertatsiyada arabcha qatlamning o'zbek adabiy tilining lug'at boyligini shakllantirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Mazkur tadqiqot maqolamizda arabcha leksemalarning struktur-semantik xususiyatlarini tavsiflashda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Arabcha va turkiy leksikaning tarixiy munosabatlari Z. M. Islomov tomonidan *"Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddamat ul-adab" asarining qo'lyozma manbalari va arabcha-turkiy fe'llar so'zligining yig'ma ilmiy-tanqidiy matni"* nomli doktorlik dissertatsiyasida tadqiq qilingan. Muallif arabcha va turkiy tillar o'rtasidagi tarixiy leksik aloqalarni qo'lyozma manbalari asosida yoritib, arabcha birliklarning qadimgi turkiy til tizimiga kirib kelish jarayonini ilmiy asoslaydi.

Mahmud Zamaxshariy merosidagi arabcha-turkiy lug'atning leksikografik xususiyatlari M. Y. Hakimjonov tomonidan o'rganilgan. Olim *"Muqaddamat ul-adab" asaridagi arabcha-turkiycha*

so'zlikning leksikografik tahlili" mavzusida arabcha birliklarning izohlanishi, tarjima usullari hamda leksikografik tamoyillarini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqot arabcha leksemalarning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Arabcha o'zlashmalarning semantik taraqqiyoti masalasi T.I. Rahmonovning *"Hozirgi o'zbek tilidagi arabcha o'zlashma so'zlar semantik tuzilishidagi o'zgarishlar"* mavzusidagi dissertatsiyasida maxsus tadqiq etilgan. Muallif arabcha birliklarning ma'no kengayishi, torayishi, metaforalashuvi va semantik transformatsiyalarini ilmiy jihatdan asoslaydi. Ushbu tadqiqot arabcha leksemalarning zamonaviy badiiy matndagi yangi semantik yuklamalarini izohlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, yuqoridagi tadqiqotlarda arabcha o'zlashmalarning tarixiy, etimologik, semantik, derivatsion va lingvomadaniy xususiyatlari turli nuqtai nazardan yoritilgan bo'lsa-da, Asqad Muxtor she'riyatidagi arabcha leksemalarning funksional-stilistik xususiyatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida deyarli o'rganilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, shoir poetikasida arabcha o'zlashmalarning ekspressiv-emotsional, aksiologik, poetik-estetik va falsafiy-konseptual funksiyalarini lingvopoetik tahlil asosida yoritadi. Shu jihatdan tadqiqot o'zbek badiiy matn lingvistikasi hamda funksional stilistika yo'nalishidagi izlanishlarni yangi ilmiy dalillar bilan boyitadi.

Tadqiqot materiallari va metodlari

Tadqiqot materiali sifatida Asqad Muxtorning turli yillarda nashr etilgan she'riy to'plamlaridan tanlab olingan namunalar xizmat qildi.

Tahlil jarayonida tavsifiy (deskriptiv) metod, komponent-semantik tahlil, lingvopoetik tahlil, funksional-stilistik tahlil, kontekstual tahlil, qiyosiy-etimologik tahlil. metodlardan foydalanildi:

Muhokama va tahlil

Arabcha leksemalarning etimologiyasi izohli va etimologik lug'atlar asosida aniqlandi, ularning poetik matndagi uslubiy vazifalari esa kontekst asosida talqin qilindi.

Insonning ruhiy holatini ifodalovchi arabcha leksemalar

Mazkur guruhga jahl, hol, alam, his, tasalli leksemalari kiradi. Ushbu birliklar lirik qahramonning ichki kechinmalarini, psixologik holatini hamda hissiy iztiroblarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *"Jahl ustida o'sha so'z aytilmaganmish."* misrasida jahl leksemasi inson tafakkurini vaqtincha cheklovchi ruhiy holatni bildiradi. Shoir ushbu leksema orqali birgina so'z inson taqdirini o'zgartirishi mumkinligi haqidagi falsafiy g'oyani ilgari suradi. Shuningdek, *"Hali ko'ngil holi pushaymonlardan..."* misrasidagi hol leksemasi lirik qahramonning ichki kechinmalarini poetik tarzda ifodalab, matnning psixologik ta'sirchanligini kuchaytiradi.

"Yolg'izlik alami hali notanish." misrasida alam leksemasi yolg'izlikning ruhiy iztirobini chuqur emotsional bo'yoqlarda ifodalasa, his va tasalli birliklari inson ruhiyatidagi sezgi hamda taskin topish ehtiyojini aks ettiradi. Demak, mazkur guruhdagi arabcha leksemalar Asqad Muxtor poetikasida, avvalo, psixologik-ekspressiv funksiyani bajaradi.

Axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi arabcha leksemalar

Bu guruhni ahd, va'da, marhamat, muqaddas, inson leksemalari tashkil etadi. Masalan, *"Ahdu va'dalardan qaytilmaganmish."* misrasida ahd va va'da birliklari sinonimik parallelizm hosil qilib, insoniy sadoqat, vafodorlik hamda ma'naviy mas'uliyat konseptlarini ifodalaydi.

Yana, *"Insonga marhamat hissi – muqaddas."* misrasida inson, marhamat va muqaddas leksemalari insonparvarlik falsafasining asosiy tayanch birliklariga aylanadi. Ayniqsa, muqaddas

leksemasi baholovchi (aksiologik) semantikani yuzaga chiqarib, marhamatni eng oliy ma'naviy qadriyat sifatida talqin qiladi.

Mazkur guruhdagi arabcha birliklar, asosan, aksiologik va axloqiy-konseptual funksiyani bajaradi.

3.3. Ishqiy-estetik mazmunni ifodalovchi arabcha leksemalar

Shoir she'riyatida visol, muhabbat, iloh, sir, abad leksemalari muhabbat falsafasining asosiy konseptlarini shakllantiradi. Masalan, *"Visol zoriqtirar..."* misrasida visol leksemasi mumtoz she'riyat an'alariga xos poetik konsept sifatida qo'llanib, muhabbatning eng oliy ruhiy orzusini ifodalaydi.

"Mening insonligim, sening ilohliging..." misrasida iloh leksemasi metaforik xarakter kasb etib, sevgilining ma'naviy mukammalligini ifodalaydi. Shuningdek, *"Va bizni teng etgan o'sha muhabbat..."* misrasida muhabbat leksemasi she'rning g'oyaviy markazi vazifasini bajaradi.

Sir va abad birliklari esa muhabbatning boqiyiligi hamda anglab bo'lmaydigan mohiyatini ramziy tarzda ifodalaydi. Demak, ushbu guruhdagi birliklar poetik-estetik va romantik-konseptual funksiyani bajaradi.

3.4. Falsafiy mushohadani ifodalovchi arabcha leksemalar

Mazkur guruhga umr, ma'no, falsafa, ehtimol, nazar birliklari kiradi. *"Haydab, har qadamda ma'no izladim..."* misrasidagi ma'no leksemasi hayotning mohiyatini anglash g'oyasini ifodalasa, *"Umr? In ham meguzarad..."* misrasidagi umr leksemasi hayotning o'tkinchiligi haqidagi falsafiy mushohadani yuzaga chiqaradi.

Nazar va ehtimol birliklari esa muallifning subyektiv munosabati hamda modal ma'nolarni ifodalab, lirik monologning tabiiyligini ta'minlaydi. Falsafa leksemasi esa she'r yakunida umumlashtiruvchi konsept sifatida xizmat qiladi. Bu guruhdagi birliklar falsafiy-konseptual va modal funksiyani bajaradi.

3.5. Arabcha leksemalarning umumiy funksional xususiyatlari

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Asqad Muxtor arabcha leksemalardan faqat lug'aviy birlik sifatida emas, balki badiiy matnning konseptual tuzilishini shakllantiruvchi poetik vosita sifatida foydalanadi.

Ular asosan ekspressiv-emotsional, psixologik, aksiologik, poetik-estetik, falsafiy-konseptual, modal, ramziy funksiyalarni bajaradi:

Arabcha o'zlashmalar shoirning individual uslubini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, ular she'riy matnning emotsional ta'sirchanligini kuchaytirib, inson, muhabbat, umr, axloq va ma'naviyat kabi konseptlarni badiiy-estetik jihatdan mukammal ifodalash imkonini beradi.

Xulosa

Asqad Muxtor she'riyati tilining lingvopoetik tahlili shuni ko'rsatadiki, arabcha o'zlashma leksemalar shoir individual uslubining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, shoir arab tilidan o'zlashgan birliklardan faqat nominativ ma'noda emas, balki poetik matnning semantik va estetik yaxlitligini ta'minlovchi funksional vosita sifatida mahorat bilan foydalangan.

Tahlil natijalari arabcha leksemalarni funksional jihatdan bir necha semantik guruhlarga ajratish imkonini berdi. Jumladan, jahl, hol, alam, his, tasalli kabi leksemalar insonning ruhiy kechinmalarini ifodalovchi psixologik-ekspressiv vositalar sifatida namoyon bo'lsa, ahd, va'da, marhamat, muqaddas, inson birliklari axloqiy va aksiologik mazmunni shakllantiradi. Visol, muhabbat, iloh, sir, abad leksemalari ishqiy-falsafiy konseptlarni badiiylashtirsa, umr, ma'no,

falsafa, nazar, ehtimol kabi birliklar hayot, vaqt va inson mavjudligiga oid falsafiy mushohadalarni ifodalashga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida arabcha leksemalarning Asqad Muxtor poetikasida ekspressiv-emotsional, poetik-estetik, falsafiy-konseptual, aksiologik, psixologik, modal hamda ramziy funksiyalarni bajarishi aniqlandi. Bu esa arabcha o'zlashmalarning shoir poetik tafakkurini ifodalashdagi stilistik imkoniyatlari nihoyatda keng ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Asqad Muxtor. Saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
2. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
3. Бондарко А. В. Теория функциональной грамматики. Темпоральность. Модальность. – Ленинград: Наука, 1990.
4. Йўлдошев Б. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили. – Тошкент: Fan, 2007.
5. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Akademnashr, 2018.
6. Маматов Н. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Fan, 2009.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Universitet, 2000.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Akademnashr, 2008.
9. Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.